

RAQAMLI TA'LIM JARAYONIDA INGLIZ TILINI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT (ADNING KELAJAKDAGI O'RNI

Mavlanova Nargiza Rustam qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti,

Narpay xorijiy tillar kafedrası stajyor-o'qituvchisi

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (AI) В БУДУЩЕМ ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мавланова Наргиза Рустам қизи,

Самаркандский государственный институт иностранных
языков, Кафедра иностранных языков Нарпайского филиала,
стажёр-преподаватель

THE FUTURE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) IN LEARNING ENGLISH WITHIN DIGITAL EDUCATION

Mavlanova Nargiza Rustam qizi,

Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Narpay Department of Foreign Languages, Trainee Teacher



E-mail:

[mavlanovanargiza11135@
gmail.com](mailto:mavlanovanargiza11135@gmail.com)

[https://orcid.org/0009-
0006-8889-1283](https://orcid.org/0009-0006-8889-1283)

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining o'rni, imkoniyatlari va kelajakdagi istiqbollari tahlil qiladi. Tadqiqotda British Council (2024) tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli hisobot asosida AI vositalarining ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganilgan. Maqolada AI texnologiyalarining ingliz tili o'qituvchilariga yordam berish, dars jarayonini moslashtirish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishdagi samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ingliz tili o'qitish, raqamli ta'lim, British Council, AI texnologiyalari.

Аннотация: В статье рассматриваются роль, возможности и перспективы использования искусственного интеллекта (AI) в преподавании английского языка в условиях цифрового образования. Исследование основано на отчёте British Council (2024), где анализируется влияние технологий AI на процесс обучения. В работе подчёркивается эффективность использования AI для поддержки преподавателей, адаптации учебного процесса и повышения уровня усвоения знаний учащимися.

Ключевые слова: искусственный интеллект, преподавание английского языка, цифровое образование, British Council, технологии AI.

Annotation: This article examines the role, potential, and future prospects of Artificial Intelligence (AI) in English language teaching within the context of digital education. Based on the comprehensive British Council (2024) report, the study explores how AI technologies influence the teaching process, assist teachers, and enhance learners' engagement and performance.

Key words: artificial intelligence, English language teaching, digital education, British Council, AI technologies.

KIRISH (BВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Bugungi raqamli transformatsiya davrida sun'iy

intellekt (keyingi o'rinlarda AI) butun dunyo e'tiborini o'ziga qaratdi — u haqida cheksiz

maqolalar, ilmiy ishlar yozilib, qizg'in munozaralar olib borilmoqda. Bu munozaralar, ayniqsa, **ta'lim sohasi vakillari orasida** qizg'in bahslarga sabab bo'lmoqda: sun'iy intellekt bizning o'quvchilarimizning bilim olish va ko'nikmalarni rivojlantirish usullariga qanday ta'sir qiladi? O'qituvchilarni tanlash va tayyorlash jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi? Yoki kelajakda texnologiya o'qituvchilarning o'rnini butunlay egallaydimi? Mazkur maqolada sun'iy intellekt va ingliz tili o'qitish o'rtasidagi kelgusida ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan asosiy savollarni o'rta tashlaydi va **AI ni xavfsiz va samarali tarzda ta'lim jarayoniga integratsiya qilish** uchun zarur bo'lgan keyingi muhim qadamlarga poydevor bo'ladi. Ushbu maqolada *British Council* tomonidan chop etilgan *Artificial Intelligence and English Language Teaching: Preparing for the Future* (2024) [1] hisobotidagi ma'lumotlar va raqamlardan foydalanilgan. Mazkur manba ingliz tilini o'qitish jarayonida sun'iy intellektning o'rnini va o'qituvchilarning fikrlarini aks ettiruvchi muhim empirik dalillarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqola AI texnologiyalarining ingliz tili o'qitishdagi samaradorligi va kelajakdagi imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). Ushbu mavzu yuzasidan tadqiqot olib borgan Russell S. va Norvig P. AI — bu inson tafakkuriga o'xshash tarzda o'rganish, fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega kompyuter tizimlarini yaratishga qaratilgan ilmiy yo'nalishdir deb ta'kidlagan [6].

Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish nazariy jihatdan **konstruktivizm** va **adaptiv o'qitish** tamoyillariga asoslanadi. Piaget J.ning fikrlariga ko'ra Konstruktivizm o'quvchi bilimni mustaqil ravishda faol o'zlashtiradi; AI esa bu jarayonda unga moslashtirilgan yo'l-yo'riqlarni taklif etadi [5]. Adaptiv ta'lim texnologiyalari esa foydalanuvchining bilim darajasi, tezligi va xatolariga qarab mashg'ulotlarni avtomatik tarzda o'zgartiradi [9].

Smith tadqiqotida aytilishicha, AI asosidagi chat-botlar va virtual yordamchilar o'quvchilarga real vaqt rejimida mashq qilish muhim ahamiyatga ega [7].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Hozirda sun'iy intellekt (AI)ni

ingliz tilini o'qitishda (ELT) qo'llash bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlar soni besh yoki o'n yil avvaligiga qaraganda ko'proq. Bu esa sun'iy intellekt vositalarining soni va unga bo'lgan jamoatchilik qiziqishining so'nggi yillarda oshganini aks ettiradi. Qizig'i shundaki, tadqiqot natijalari rasmiy ta'lim tizimidan tashqarida kattalar uchun ingliz tilini o'qitishda (ELT) sun'iy intellekt bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolalarda sezilarli bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarning aksariyati oliy ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarga qaratilgan. Bu esa, ehtimol, ingliz tilini o'rganishni yoshroq avlod orasida kengayib borayotgan umumiy demografik tendensiyaning aks ettiradi [8].

Ingliz tili o'qitishda Sun'iy intellektning kelajakdagi o'rnini haqidagi tadqiqotlarning eng ishonchlisi va yangi talqini **British Council**. (2024). *Artificial Intelligence and English Language Teaching: Preparing for the Future* [1]. 2 marotaba ketma-ket olib borilgan bo'lib, tadqiqot yangilanishiga sabab sifatida ushbu hisobotning I-qismida keltirilgan dastlabki tizimli tahlil 2014-yildan 2023-yil aprel oyigacha bo'lgan tadqiqotlarni o'rgangan edi. 2023-yilda generativ sun'iy intellektning tez sur'atlarda rivojlanishi sababli, tadqiqotchilar yil davomida chop etilgan barcha ilmiy ishlarni qamrab olish, tahlilni yangilash va ingliz tilini o'qitishda (ELT) sun'iy intellekt bo'yicha eng so'nggi natijalarni taqdim etish zaruriyatini aniqladilar. Shu sababli, 2023-yilda chop etilgan barcha tadqiqotlarni qamrab olgan ikkinchi tadqiqot o'tkazildi. 2023-yil davomida chop etilgan barcha tegishli adabiyotlar 2014–2022-yillar oralig'ida chop etilgan tadqiqotlar bilan tahlil qilinib, solishtirildi. Aniq raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak 2023-yilda ingliz tilini o'qitishda (ELT) sun'iy intellekt (AI) bo'yicha chop etilgan tadqiqotlar sonida keskin o'sish kuzatildi. Aslida, faqat shu bir yilning o'zida (32 ta tadqiqot) nashr etilgan ilmiy ishlar soni avvalgi to'qqiz yil davomida chop etilgan tadqiqotlar (34 ta) soniga deyarli teng bo'ldi. Chop etilgan tadqiqotlar sonidagi bu keskin o'sish GPT-4 va Gemini kabi suhbatga asoslangan sun'iy intellekt vositalarining paydo bo'lishidan keyin AI texnologiyalariga bo'lgan qiziqish va ularning keng tarqalishiga parallel ravishda yuz berdi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). ELT (English Language Teaching)

jarayonida sun'iy intellekt (AI)dan foydalanishlari va bu haqdagi fikrlarini aniqlash maqsadida maxsus so'rovnoma ishlab chiqilib, so'rovnoma **British Council**ning *TeachingEnglish* Facebook hamjamiyati hamda boshqa ijtimoiy tarmoqlar va pochta ro'yxatlari orqali tarqatilgan.

So'rovnomada 118 ta mamlakat va mintaqadan 1 348 nafar ingliz tili o'qituvchisi qatnashgan. Keltirilgan tadqiqotlar natijalaridan biri 2035-yilgacha AI o'qituvchisiz ingliz tilini o'rgata olishi haqida bo'lib unga ko'ra ko'pchilik AI o'qituvchining o'rnini bosa olishiga ishonishmagan [1]. 1 112 nafar ishtirokchining atigi 24 foizi kelajakda bu holat yuz berishiga ishonishini bildirgan, 51 foizi esa shubha bildirgan. Biroq 26 foizi neytral javob bergan bo'lib, bu sohada sun'iy intellektning imkoniyatlari borasida sezilarli darajada noaniqlik mavjudligini ko'rsatadi. 125 ta yozma izohlarning aksariyatida sun'iy intellekt o'qitish jarayoniga yordam bera oladi, ammo u insonning o'ziga xos "insoniy hislar"ini qo'llay olmaydi. Masalan, "Inson tajribasi o'ziga xos va hech qanday mashina uni takrorlay olmaydi" degan fikrlar ta'limda insonlarning o'zaro fikr-almashishining o'rnini alohida ko'rsatadi. Biroq ayrimlar texnologik taraqqiyotni tan olib, shunday fikr bildirganlar: AI o'qituvchilarning o'rnini to'liq egallamasligi mumkin, ammo ta'limdagi roli ortib boradi. Masalan, "AI hozirning o'zida aksariyat inson o'qituvchilariga qaraganda chet tillarni o'rgatishda ko'proq narsani biladi" degan fikrlarni ilgari surishgan. Shuningdek, ayrim ishtirokchilar sun'iy intellektning ta'limga kengroq kirib borish imkoniyatini ham tan olishgan. Ulardan biri shunday degan: "Kimda imkoniyat bo'lsa, baribir inson o'qituvchilarni afzal ko'radi, ammo imkoniyati bo'lmaganlar uchun imkoniyatlar keskin kengayadi". Bu 125 nafar ishtirokchining aksariyati o'qitishni hanuz an'anaviy sinf doirasida tasavvur qilgan — "20–40 nafar bolali sinfda AI nazoratni qo'lga ola olmaydi." Umuman olganda, sun'iy intellektning imkoniyatlari tan olingan bo'lsa-da, yozma izoh qoldirgan ishtirokchilarning (ya'ni o'qituvchilarning) umumiy fikri — inson o'qituvchilarning ahamiyati hanuz muhimligicha qoladi — degan xulosaga keladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida, yuqoridagi raqamlardan kelib chiqib tadqiqotning British Council tomonidan keng miqyosda o'tkazilganligi, raqamlarning

aniqligi jihatdan bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. shuningdek biz AIning yordamchi vosita sifatidagi salohiyatiga nisbatan optimistik qarashni ifoda etishimiz, xususan, uning moslashtirilgan resurslar taqdim etish, mustaqil o'rganishni rag'batlantirish va muayyan til ko'nikmalarini yaxshilash qobiliyatini e'tirof etishimiz zarur. Biroq, bu ijobiy fikrlar bilan bir qatorda texnologiyaga haddan tashqari tayanish, insoniy muloqotning kamayishi, noto'g'ri foydalanish xavfi va AI til va madaniyatning nozik jihatlarini to'liq anglay olmasligi shuningdek, o'qituvchilarning ko'pchiligi AIning o'qitish jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligini va bu borada ko'proq trening va tayyorgarlik zarurligini qayd etish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. British Council. Artificial Intelligence and English Language Teaching: Preparing for the Future. London: British Council. 2024.
2. Brown T. Artificial Intelligence in Education: Supporting Teachers, Not Replacing Them. *Educational Innovations Journal*, 12(3), 2021. – P.33–46.
3. Johnson R. The Role of Artificial Intelligence in Grammar Learning and Feedback. *Language and Education Review*, 18(4), 2023. P.78–92.
4. Lee C. AI as a Complementary Tool in ELT: Pedagogical Perspectives. *Asia-Pacific ELT Journal*, 9(1), 2023. – P.22–35.
5. Piaget J. *Biology and Knowledge*. University of Chicago Press. 1971.
6. Russell S., & Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. 4th Edition. Pearson Education. 2020.
7. Smith A. AI-Based Chatbots in Language Learning: Enhancing Communication Skills. *Journal of Educational Technology Studies*, 15(2), 2022. – P.45–57.
8. Trajectory Partnership. *AI and English Language Learning: Global Trends and Demographics*. – London. 2018.
9. Woolf B. P. *Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning*. Morgan Kaufmann. 2010.